

**O'ZBEK HUQUQSHUNOS AYOLLARI TARIXIDA ILK QADAM:  
XADICHA SULAYMONOVANING ILMIY VA IJTIMOIIY FAOLIIYATI**

**Xakimxo'jayeva Sevdol Kamol qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

[sevdokimxojayeva@gmail.com](mailto:sevdokimxojayeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada Xadicha Sulaymonovanning ilmiy faoliyati, uning sud-huquq tizimidagi samarali faoliyati, bosqichlari hamda XX asr O'zbekiston huquqshunoslik faniga qo'shgan hissasi haqida batafsil yoritiladi. Xadicha Sulaymonova Moskva yuridik institutidagi tahsil olishi davomida ilmiy ishlar, dissertatsiyalar yozadi. Uning huquq nazariyasi, davlat va huquq rivoji hamda huquqiy madaniyatni shakllantirishga oid ilmiy qarashlari esa tahlil qilinib, urush davrida uning pedagogik faoliyatga jalb etilishi va ilmiy ishni davom ettirishdagi fidoyiligi ko'rsatib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Xadicha Sulaymonova, huquqshunoslik, jinoyat huquqi, ilmiy meros, O'zbekiston huquq tarixi, Moskva yuridik instituti, Ikkinchi jahon urushi, ilmiy izlanish, pedagogik faoliyat.*

**Abstract:** This scientific article highlights in detail the academic activities of Khadicha Sulaymonova, her impactful career within the judicial-legal system, the milestones of her professional journey, and her contribution to the legal science of 20th-century Uzbekistan. The article reviews the scholarly works and dissertations authored by Khadicha Sulaymonova during her studies at the Moscow Institute of Law. Her scientific perspectives on legal theory, the development of state and law, and the formation of legal culture are analyzed. Furthermore, the

article illustrates her involvement in pedagogical activities during the war and her dedication to continuing her research under challenging circumstances.

**Keywords:** Khadicha Sulaymonova, jurisprudence, criminal law, scientific heritage, legal history of Uzbekistan, Moscow Institute of Law, Second World War, scientific research, pedagogical activity.

### **Kirish**

XX asr O‘zbekiston huquqshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida bir qator yetuk olim va olimalar yetishib chiqqan bo‘lib, ular orasida Xadicha Sulaymonova alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining ilmiy salohiyati, chuqur bilimga intilishi va mehnatsevarligi bilan milliy huquqiy fan rivojiga munosib hissa qo‘shgan olimalardan biridir. Akademik, olima Xadicha Sulaymonova Andijonda tavvalud topgan bo‘lib, uni “Nurxon” sud voqeasi Toshkentga yetaklab keladi va shu zumdand huquqshunoslik sohasida o‘z o‘rnini juda tez topadi. 1935-yilda Jahon Obidova nomidagi intitutga kirib, ilmiy shakllanishini Moskva yuridik institutida davom ettiradi. U mashhur olim, SSSR Fanlar akademiyasi muxbir-a‘zosi, professor A.I. Traynin rahbarligida ilmiy izlanishlar olib borgan. Talabalik yillarida u falsafa, davlat va huquq nazariyasi, jinoyat huquqi hamda xorijiy tillar bo‘yicha barcha nomzodlik imtihonlarini a‘lo baholarga topshiradi. Uning ilmiy faoliyati “Harbiy intervensiya va fuqarolar urushi davrida O‘zbekistonning jinoyat qonunlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ilmiy materiallar to‘plagan. Biroq, 1941-yilda boshlangan Ikkinchi jahon urushi uning ilmiy ishini yakunlashga imkon bermagan. Shunga qaramasdan, u Toshkent yuridik institutida pedagogik faoliyatini davom ettirib, talabalarga saboq bergan va ilmiy izlanishlarini to‘xtatmagan. Uning fidokorona mehnati,

ilmga sadoqati va pedagogik faoliyati Xadicha Sulaymonovani O‘zbekiston huquqshunoslik fanining yetuk vakillaridan biri sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Xadicha Sulaymonovanning ilmiy va pedagogik faoliyati Ikkinchi jahon urushi davrining murakkab sharoitida yanada faollashdi. Urush sababli aspirantura faoliyati to‘xtatilgan va ko‘plab ilmiy xodimlar frontga safarbar etilgan bir paytda, u Toshkent yuridik institutiga ishga yuboriladi. 1941–1945-yillar davomida u dastlab assistent, keyinchalik esa dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida faoliyat yuritib, talabalarga huquq fanlaridan saboq berdi. Ushbu davrda Xadicha Sulaymonova nafaqat pedagogik ish bilan shug‘ullangan, balki o‘z ilmiy izlanishlarini ham uzluksiz davom ettirgan. U kunduzlari institutda ma’ruza o‘qish va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan band bo‘lsa, kechalari esa charchoqqa qaramasdan dissertatsiya ustida ishlashni davom ettirgan. Bu uning ilmiy maqsadiga bo‘lgan qat’iy sadoqati va fidoyiligini yaqqol namoyon etadi. Uning mehnati o‘z natijasini berib, 1945-yilda u SSSR Adliya komissarligi huzuridagi Butunittifoq yuridik fanlar institutida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, huquqshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi. Shu tariqa u huquqshunoslik sohasida ilmiy darajaga ega bo‘lgan ilk o‘zbek ayollaridan biri sifatida tarixda qoladi.

### **Asosiy qism**

Xadicha Sulaymonova o‘zining matonati, qat’iyatliligi bilan tengdoshlari, hamkasblari orqasida huquqshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlarini kun sayin ko‘paytirib, xalqaro maydonda ayol-qizlar huquqlarini himoya qiladi. Aynan shu yili u Toshkent yuridik instituti Jinoyat huquqi kafedrasini mudiri etib tayinlanadi. 1948-yilda Xadicha Sulaymonova SSSR Fanlar akademiyasining Huquq institutiga

doktoranturada tahsil olish uchun yuboriladi. Doktorantura davrida u ilmiy izlanishlarini yanada chuqurlashtirib, O‘zbekiston SSRda sovet sudlari tashkil topishi tarixiga bag‘ishlangan muhim ilmiy maqolalarni e‘lon qiladi. Ushbu tadqiqotlar o‘sha davr sud tizimining shakllanishini ilmiy asosda yoritib bergani bilan katta ahamiyat kasb etgan. Uning ilmiy faoliyatining yana bir muhim jihati shundaki, u tarixiy-huquqiy jarayonlarni chuqur tahlil qilib, milliy huquq tizimining shakllanish bosqichlarini ilmiy asosda ochib bergan. Xususan, u o‘z ishlarida Turkistonda uzoq yillar davomida shakllangan diniy-huquqiy munosabatlarni ham tahlil qilib, 1928-yilgacha amalda bo‘lgan qozilik sudlari faoliyatiga baho bergan. Shuningdek, ayrim an‘anaviy normalardan vaqtincha foydalanish imkoniyatlarini ham ilmiy jihatdan asoslab berganligi bilan ajralib turadi. 1950-yilda u “O‘zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, Toshkent davlat yuridik instituti professori darajasiga erishadi. Shu bilan birga, u respublikada jinoyat huquqi fanining rivojlanishiga asos solgan yetuk olim sifatida e‘tirof etiladi. O‘sha davrda O‘zbekistonda huquqshunoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot muassasalari deyarli mavjud emas edi. Faqatgina Tarix va arxeologiya instituti tarkibida huquq tarixi bo‘limi faoliyat yuritardi. Keyinchalik aynan Xadicha Sulaymonovaning tashabbusi va sa‘y-harakatlari natijasida ushbu bo‘lim asosida Falsafa va huquq instituti tashkil etilib, u huquqshunoslik fanlari bo‘yicha yirik ilmiy markazga aylandi. Uning ilmiy izlanishlari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, O‘zbekistonda jinoyat huquqining rivojlanishiga oid muhim ilmiy va amaliy takliflar bilan boyitilgan. Xususan, u 1926-yilda qabul qilingan ilk O‘zbekiston Jinoyat kodeksini ilmiy jihatdan chuqur

tahlil qilib, uning mazmun-mohiyati, qo'llanish amaliyoti va o'sha davr jinoyatlariga nisbatan huquqiy yondashuvlarni keng yoritgan. 1954-yilda Xadicha Sulaymonova Toshkent yuridik instituti direktori lavozimiga tayinlanadi. Shu yili unga "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni beriladi. Bu esa uning ilmiy-pedagogik faoliyatining yuksak darajada e'tirof etilganidan dalolat beradi. 1956 yilning oktyabr oyida Xadicha Sulaymonovanning ilmiy faoliyatida muhim burilish yuz berdi, u O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga saylanib, akademik degan yuksak ilmiy unvonga sazovor bo'ldi. Bu voqea uning ko'p yillik ilmiy izlanishlari va fidokorona mehnatining yuksak namunasidir. Aynan shu davrda u akademik unvonini bir kunda qo'lga kiritgan taniqli olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti o'rinbosari Ibrohim Mo'minov bilan yaqin ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Ularning umumiy tashabbusi sifatida respublikada falsafa va huquq yo'nalishlarini birlashtirgan ilmiy institut tashkil etish g'oyasi ilgari suriladi. Mazkur tashabbus oradan ikki yil o'tib, 1958-yil aprel oyida o'zining amaliy ifodasini topadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Rayosati tomonidan Mo'minov va Sulaymonova tomonidan ishlab chiqilgan institutning tashkiliy tuzilmasi hamda ilmiy faoliyatiga oid hujjatlar rasman tasdiqlanadi. Shundan so'ng, 1958 yil may oyidan boshlab institut faoliyati yo'lga qo'yilib, uning tarkibida falsafa va huquq bo'limlari shakllantiriladi. Xususan, huquq bo'limi bir necha muhim yo'nalishlarni qamrab olgan holda tashkil etiladi: davlat va huquq nazariyasi hamda tarixi, davlat huquqi va sovet qurilishi, shuningdek jinoyat va fuqarolik huquqi hamda protsess yo'nalishlari. Mazkur tuzilma doirasida Xadicha Sulaymonova nafaqat jinoyat va fuqarolik huquqi hamda protsessi bo'limiga rahbarlik qiladi, balki butun huquq bo'limi

faoliyatini umumiy boshqarishni ham o'z zimmasiga oladi. Bu esa uning ilmiy salohiyati bilan bir qatorda, yuqori darajadagi tashkiliy qobiliyatga ega ekanini ham namoyon etadi. Institut faoliyatiga qisqa vaqt ichida bir qator iqtidorli yosh huquqshunoslar jalb etiladi. Ular orasida G'ulom Axmedov, Hojiakbar Rahmonqulov, T.A. Ayubov, Ikrom Jalilov, Galina Tansiqboeva hamda Holidi Yo'qubova kabi mutaxassislar bor edi. Shu tariqa, yangi tashkil etilgan ilmiy markaz atrofida kuchli va istiqbolli ilmiy jamoa shakllana boshlaydi. Xadicha Sulaymonova o'zining fidokorona mehnatlari bilan hamkasblari orasida yuksak natijalarga erishib boraveradi.

### **Xulosa**

Xadicha Sulaymonova XX asr O'zbekiston huquqshunoslik fanining rivojlanishida chinakam poydevor yaratgan buyuk shaxsdir. Uning ilmiy izlanishlari jinoyat huquqi tarixini chuqur o'rganish, milliy va sovet huquq tizimlarining o'zaro ta'sirini tahlil qilish, an'anaviy normalarni ilmiy baholash huquq fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitdi. Urush yillari va murakkab sharoitlarda ko'rsatgan matonat va mehnatsevarlik namunasi bugungi avlod uchun ibratdir. U nafaqat ilk o'zbek ayol huquqshunos olimi va akademik sifatida, balki ilmiy muassasa tashkilotchisi, qonun qabul qilishda rasman ishtirok etgan deputat va yetuk murabbiy sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bugungi kunda ham Xadicha Sulaymonova nomi sud ekspertizasi markazi, talaba-sudyalar klublari va ilmiy tadqiqotlarda yashab, yosh huquqshunoslarni ilm va adolatga undamoqda. Uning hayoti va faoliyati shuni ko'rsatadiki, qat'iyat, bilimchanlik va xalq manfaati yo'lida fidoyilik har qanday qiyinchilikni yengib, buyuk natijalarga olib

keladi. Xadicha Sulaymonova o‘zbek huquqshunosligining faxri va milliy g‘urur ramzidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Xadicha Sulaymonova – huquqshunos, olim, davlat arbobi/ M.Hakimov, F.Ahmedov, A.Saidov. – T.:O‘zbekiston,1993-y. – 151-b
2. Uch mashhur o‘zbek ayoli. Sudyalar Oliy Kengashi. – Toshkent: 2022-yil.
3. To‘lqinova Visola Ulug‘bek qizi, Xomidova oyshaxonim Ulug‘bek qizi / Xadicha Sulaymonova: Huquqshunoslikda ibrat namunasi [ To‘plam] / Guliston: Ziyo nashr-mantbaa, 2025-152 bet.